

# **LINGVOKULTUROLOGIYADA OLAMNING TIL MANZARASI**

## **MASALASI XUSUSIDA**

*M.T. Zokirov, Farg‘ona davlat universiteti professori  
filologiya fanlari nomzodi*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada turli xalqlarning o‘z atrofidagi olamni ifodalashida til imkoniyatlaridan foydalanishiga oid qarashlar bayon qilingan. Ma’lumki, atrofimizdagи olamni idrok qilish muayyan til egalarining madaniy-milliy xususiyatlariga bog‘liq. Shuning uchun olamning til manzarasida mavjud tafovutlarning sabablarini etnologiya, lingvokulturologiya va boshqa turdosh fanlar nuqtai nazaridan aniqlash muhim. Bunday farqlar vujudga kelishining juda ko‘p sabablari mavjud bo‘lib, ular, asosan, tabiat, madaniyat, bilish bilan bog‘liqdir.

Ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, olamning til manzarasi – bu til vositalari orqali aks ettirilgan ong tasavvurlaridir .

Ma’lum bir tabiiy tilda olamning idrok etilishidan til manzarasi yoki modeli g‘oyasi kelib chiqadi. So‘zlar vositasida olamning tasvirlanishi juda muhimdir. Kontrastiv tilshunoslik yo‘nalishi asoschilaridan biri hisoblangan R.Lado ta’kidlashicha, barcha tillarda ma’no bir xildir, tillar mazkur ma’nolarni ifodalash shakli bilan farqlanadi xolos degan soxta tushuncha mavjud. Aslida esa, ma’no madaniy aniqlangan, unda bizning tajribamiz aks etgan bo‘ladi, shuning uchun ma’no madaniyatdan madaniyatga o‘tish jarayonida jiddiy o‘zgarishlarga uchrashi mumkin.

Olamni idrok qilish muayyan til egalarining madaniy-milliy xususiyatlariga bog‘liq. Shuning uchun olamning til manzarasida mavjud tafovutlarning sabablarini etnologiya, lingvokulturologiya va boshqa turdosh fanlar nuqtai nazaridan aniqlash muhimdir. Mazkur masalaning yechimini topish tadqiqotchini lingvistika doirasidan chiqib, turli xalqlar tomonidan olamni bilish sirlariga bo‘lgan qiziqishning chuqurlashishiga olib keladi. Bunday farqlar vujudga

kelishining juda ko‘p sabablari mavjud bo‘lib, ular, asosan, tabiat, madaniyat, bilish bilan bog‘liqdir.

Birinchi omil – tabiat. Ya’ni odamlarning tashqi yashash sharoitlari ularning tillarida o‘z aksini topadi. Odam o‘zi bilgan hayvon, o‘simlik, joylarga, o‘zi his qilayotgan tabiat hodisalariga nom beradi. Tabiiy sharoit inson til ongingin hatto ranglarni idrok qilish jarayonini boshqaradi. Tabiat ranglarini nomlash, odatda, atrofdagi predmetlarni ko‘rib idrok qilishning farqlanuvchi belgilariga asoslanadi. Tabiatdagi muayyan obyekt u yoki bu rang bilan bog‘lanadi. Turli til madaniyatlarida rang belgilash bilan bog‘liq o‘z assotsiativ bog‘lanishlari mavjud bo‘lib, ular qaysidir jihatlari bilan bir-biriga to‘g‘ri kelsa, qaysidir jihatlari bilan esa bir-biridan farq qiladi. Atrof-olam, tabiat inson tilida shunday assosiativ tasavvurlarni shakllantiradiki, ular tilda ma’nolarning metaforik ko‘chimlari, qiyoslash konnotatsiyalarda o‘z aksini topadi.

Ikkinci omil madaniyatdir. Madaniyat – bu inson tabiat olamidan olgan narsa emas, bu inson o‘zi yaratgan, qilgan, qo‘sghan narsasidir. Turli avlodlar, ijtimoiy jamoalarini bir biridan ajratuvchi moddiy va ma’naviy faoliyat natijalari, ijtimoiy-tarixiy, estetik, axloqiy hamda boshqa qadriyatlar va me’yorlar bevosita kishilarning olam haqidagi turli til va konseptual tasavvurlarlarda yuzaga chiqaradi. Madaniyat sohasidagi har qanday o‘ziga xos xususiyat tilda aks etadi. Tillardagi farqlar, shuningdek, milliy urf-odatlar, an’analar, marosimlar, folklor-mifologik tasavvurlar, ramzlar tufayli ham vujudga kelishi mumkin.

Uchinchi omil, bilish xususida shuni aytish lozimki, olamni anglashning aql-idrok, hissiy va ma’naviy usullari har bir insonni bir biridan farqlaydi. Bilish jarayonida borliq haqidagi tasavvurlar shakllanadi.

Olamning til manzarasi tushunchasining ko‘p sonli talqinlarining mavjudligi turli tillar olam manzaralarida muayyan tafovutlar yuzaga kelishi bilan bog‘liq, chunki atrof olamni idrok qilish muayyan til egalarining madaniy-milliy xususiyatlariga bog‘liqdir. Har bir olamning manzarasi til haqidagi o‘z tasavvurini belgilaydi, shuning uchun “olamning ilmiy (konseptual) manzarasi” va “olamning til (sodda) manzarasi” tushunchalarini farqlash muhimdir.

Olam manzarasini o‘rganishning bugungi holati ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlardan iboratdir. Birinchidan, berilgan tilga xos alohida konseptlar tahlil qilinadi. Bu, eng avval, til va madaniy ongdagi “stereotip”lardir. Ikkinchi tomondan, xos bo‘lmagan konseptlarning o‘iga xos konnotatsiyalari, masalan turli madaniyatlarda rang belgilovchi ramzlar. Yu.D.Apresyan o‘tkazilgan tajribalar natijasida kompyuter monitori ranglaridan bo‘lgan madaniy ta’sirlanish va tasavvurlarda aniqlangan farqlar xususida qiziqarli ma’lumotlar keltiradi. Masalan, qizil rang AQSHda havf-xatarni, Fransiyada aslzodalarini, Misrda o‘limni, Hindistonda hayot va ijodni, Yaponiyada qahr-g‘azab va havf-xatarni, Xitoyda baxtni ifodalaydi; oq rang AQSHda tozalikni, Fransiyada betaraflikni, Misrda xursandlikni, Hindistonda o‘lim va tozalikni, Yaponiyada o‘limni, Xitoyda o‘lim va tozalikni ifodalaydi.

Shuningdek, tilga xos bo‘lgan olamga yaxlit qarash bo‘yicha izlanishlar va rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda. Mazkur yondashuvning asosiy mazmuni quyidagilardir:

1. Har bir tabiiy til olamni idrok qilish va tuzilishining ma’lum vositasi sifatida aks etadi. Unda ifodalangan ma’nolardan yagona qarashlar tizimi, jamoa falsafasi shakllanadi. Bir vaqtlar grammatik ma’no muayyan xabar uchun muhimligidan qat’iy nazar ifodalanishi shart deb leksik ma’noga qarama-qarshi qo‘yildi. So‘nggi o‘n yilliklarda leksik ma’nolarning aksariyat elementlari ham majburiy tarzda ifodalanishi lozimligi aniqlandi.

2. Tilga xos bo‘lgan olamga qarash qanchalik universal bo‘lsa, shunchalik milliy o‘ziga xosdir, shuning uchun turli til egalari atrof olamni o‘z tillari ta’siri ostida biroz farqli ko‘rishlari mumkin.

3. Boshqa tomondan olamning til manzarasi olamning ilmiy manzarasidan ko‘p detallarda farq qilganligi sababli “sodda” hisoblanadi, lekin mazkur sodda qarashlar aslo yuzaki, primitiv emas. Ko‘p hollarda ular murakkabligi va qiziqarliligi nuqtai nazaridan ilmiy tushunchalardan qolishmaydi. Masalan, insonning ichki dunyosi haqidagi sodda tasavvurlar shular jumlasiga kiradi. Ular

ming yilliklar davomida yig‘ilgan o‘nlab avlodlar tajribasi asosida shakllanadi va odamni mazkur olamga olib kiruvchi yo‘l ko‘rsatuvchi vazifasini bajarishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda semantika va pragmatikaning tez sur’atlar bilan rivojlanishi, tillarni kontrastiv o‘rganilishi, poetika va mantiq bilan aloqalarning kuchayishi natijasida har bir tilda semantik material tashkillanishining sistem va milliy o‘ziga xosligi g‘oyasi yangi kuchli impuls larga ega bo‘ldi. Leksik va grammatik ma’nolarning to‘liq tasvirlanishi asosida olamning sodda modelini tiklash bugungi kunda semantika va leksikografiyaning eng muhim vazifasi sifatida qaralayapti. Ikkinchisi tomondan, olamning sodda modelini tiklash til ma’nolarini tasvirlash strategiyasini o‘zgartirish, uni umumlashtirish imkonini beradi. Dastavval, tilshunoslari til ma’nolarini borliq faktlarining bevosita in’ikosi sifatida ko‘rib chiqishardi. Til ma’nolarini soddarroq tushunchalar orqali elementar ifodalar – universal semantik metatil so‘zlarigacha tasvirlash strategiyasi bunga muvofiq keladi. Lekin olamning sodda modeli tushunchasi semantikaga yangi imkoniyatlar beradi. Til ma’nolarini borliq faktlari bilan bog‘lab emas, balki mazkur tilda namoyon bo‘lgan olamning sodda modelining ma’lum detallariga havola qilish orqali bog‘lash mumkin. Natijada til ma’nolari shakllanishining ayrim tamoyillarini ochib beruvchi tabiiy tillar semantikasidagi universal va milliy o‘ziga xosliklarni aniqlash uchun asos yuzaga keladi.

Tadqiqotlar natijasida olam manzarasi tushunchasining amaliy vazifalari o‘z navbatida dunyodagi ko‘pdan-ko‘p madaniyatlarning yuzaga kelishi vaziyati hamda insoniyat genezisi jarayonlarini anglashdan iborat bo‘lgan zamonaviy lingvokulturologiya va semiotikaga uzviy ravishda bog‘lanib ketadi.

Shunday qilib, lingvistika rivojlanishining zamonaviy davrida olamning til manzarasi inson haqidagi fanlar majmui doirasida tasvirlash va tavsiflash obyektiga aylanayotganini ta’kidlash mumkin. Har bir tilning olam manzarasi mazkur xalqning folklori, mifologiyasi, madaniyati, tarixi, urf-odati va psixologiyasi kontekstidagina emas, balki lingvistika kontekstida ham ko‘rib chiqilada. Semantika va leksikografiya rivojlanishining bugungi bosqichida leksik

va grammatik ma'nolarni tasvirlash asosida olamning sodda modelini yaratish eng muhim vazifaga aylanmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Каримова, С. (2021). Хиндистон форсий адабиёти тарихи. Иностранный филология: язык, литература, образование, (2 (79)), 25-30.
2. Каримова, С. (2021). Форс-тожик тилидаги янги адабиётда ҳиндий сабк. Иностранный филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 23-26.
3. Каримова, С. (2020). Зебуннисобегим шеъриятида бадиий санъатлар. Иностранный филология: язык, литература, образование, (4 (77)), 18-22.
4. Рахматова, Д. (2021). Сайқалланаётган “Ўткан кунлар”. Общество и инновации, 2(3/S), 173-179.
5. Диляфруз Рахматова (2021). Совершенствующие «Минувшие дни». Общество и инновации, 2 (3/S), 173-179. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss3/S-pp173-179